

Destination **A1**

Vocabulary

Meanings & Example Sentences



Translator:
Zoir Akramov

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Muallifning Onlayn Ingliz Tili Kurslari.....	5
Unit 3. My Home.....	7
Unit 6. Hobbies and Pastimes.....	11
Unit 9. School Life.....	16
Unit 12. Making Friends and Getting to Know People.....	21
Unit 15. Travel.....	26
Unit 18. Sports and Healthy Lifestyle.....	30
Unit 21. Rules.....	35
Unit 24. Food and Shopping.....	39
Unit 27. Character and Appearance.....	47
Unit 30. Weather and Seasons, Nature and Ecology.....	52
Unit 33. Clothes and Fashion.....	56
Unit 36. Jobs and Professions.....	62
Unit 39. Famous People and Places.....	67
Unit 42. Communication and Technology.....	72

KIRISH

Qadrli foydalanuvchi! Ushbu lug'at kitobi Malcolm Mann va Steve Taylore-Knowles tomonidan tuzilgan hamda beginner va elementary darajalaridagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan "Destination A1" kitobining Vocabulary (= Lug'at) qismlaridagi barcha so'zlarning tarjimalarini o'z ichiga oladi.

Kitob Muallifi Haqida Qisqacha

Ushbu kitob muallifining to'liq ismi Zoir Akramov va 2002-yilda tavallud topgan. Kitob til o'rganuvchilariga taqdim etilgan vaqtda (2023-yil), muallif xalqaro darajada tan olingan IELTS baholash tizimi bo'yicha 8.0 ball egasi bo'lgan. Shunday ekan, kitobdagi deyarli barcha ma'lumot, tarjimalar hamda namunalarga ishonsa bo'ladi.

Sizning Fikringiz Biz Uchun Muhim!

Agarda siz ushbu kitobdan foydalanish jarayonida, qandaydir kamchilik yoxud xatoga duch kelsangiz, quyidagi manzil orqali muallif bilan bog'lanishingizni va xato haqida muallifga xabar berishingizni so'raymiz. Bundan tashqari, kitob haqidagi boshqa har qanday (tanqidiy va ijobiy) fikrlaringizni ham ushbu manzilga yuborishingiz mumkin. Sizning fikrlaringizni eshitishdan mamnun bo'lamiz va aynan sizning fikrlaringizga asoslangan holda kitob takomillashtirib boriladi.

Telegram: @Zoir_Akramov

E-mail: akramov2002zoir@gmail.com

Kitobdan To'g'ri Foydalanish

Kitobda eng birinchi inglizcha so'z va uning tarjimasi berilgan. So'zlarning birdan ko'proq tarjimalari ham keltirilgan holatlar mavjud va buning sababi, ba'zi so'zlar bir nechta ma'noga ega va turli xil gaplarda turli xil tarjimada kelishi mumkin. Har bir so'z uchun bittadan namunaviy gap va gapning tarjimasi ham ta'minlangan. Chunki til o'rganishning beginner va elementary kabi ilk boshqichlarida, so'zni shunchaki tarjimasinigina yodlash kutilgan natijani bermaydi. Ushbu bosqichlarda, so'zni amalda qanday ishlatishni ham o'rganib borish tavsiya etiladi. Har bir yangi so'zni namunaviy gaplar bilan o'rganish darkor. Shundagina, so'zning gapdagi o'rni haqida, va u boshqa qaysi so'zlar bilan birgalikda qo'llanila olishi haqida tasavvurga ega bo'lasiz. Aks holda, yodlagan so'zingiz tezda yoddan chiqib qoladi va uni amalda qo'llay olmaysiz. So'zni yanada uzoqroq muddat davomida yodda tutib qolish va uni writing (= yozish) jarayonida qo'llay olish uchun, har bir namunaviy gapga asoslangan holda, o'zingiz boshqa bir gap yozishingiz tavsiya etiladi. Misol tariqasida, "hobby" so'zi uchun kitobda berilgan quyidagi namuna gapni olaylik: *My favourite hobby is reading.* – *Mening sevimli mashg'ulotim kitob o'qish.* Ushbu namuna gap "hobby" so'zi uchun ta'minlangan va ushbu so'zni yana ham yaxshiroq o'rganish uchun, siz berilgan namuna gapdagi ba'zi so'zlarni o'zgartirib, butunlay boshqacha bo'lgan o'zingizning yangi gapingizni tuzishingiz mumkin. "My" so'zining o'rniga "his" (ya'ni, "uning") so'zidan foydalanamiz; "reading" so'zining o'rniga "playing football" birikmasidan foydalanamiz. Shunday qilib, tabriklaymiz, siz "hobby" so'zidan foydalangan holda o'z namuna gapingizni tuzdingiz va endi ushbu so'z sizning yodingizda

uzoqroq muddat davomida qoladi: *His favourite hobby is playing football. – Uning sevimli mashg'uloti futbol o'ynash.*

Muallifning Boshqa Rejalari

Til o'rganuvchilari uchun mo'ljallangan boshqa Destination seriyalari ham mavjud, xususan "Destination A2", "Destination B1", "Destination B2" hamda "Destination C1&C2". Hozirga qadar, "Destination A1" va "Destination B1" kitoblaridagi lug'atlarning tarjimalari tayyorlangan va ularni @destination_vocabulary telegram kanalidan topishingiz mumkin. Til o'rganuvchilariga yordam berish hamda boshlagan ishimni yakunlab qo'yish maqsadida, qolgan 3 kitobning ham Vocabulary qismlaridagi so'zlarni ishonchli tarzda tarjima qilishni oldimga maqsad qilganman. Bundan tashqari, ko'rish qobiliyati jihatdan imkoniyati cheklangan do'stlarimiz uchun ushbu so'zlarning to'g'ri talaffuzlarini ham audio kitob tarzida ishlab chiqish; Destination kitoblarining har bir grammatik mavzusiga video darslar tayyorlash kabi ulkan maqsadlarim ham bor. Albatta, bularning bari vaqt talab etadi, ammo bir kun kelib siz-u men kabi ingliz tili o'rganuvchilariga sezilarli darajada foydasi tegadigan material tayyor bo'ladi.

Agar bu borada muallifga o'z holis yordamingizni berishni hamda jarayonni tezlashtirishni istasangiz, quyidagi plastik kartasiga ko'nglingizdan chiqarib istalgan summadagi yordam pulini o'tkazishingiz mumkin. Sizning behad ulkan ko'magingizdan boshimiz ko'kka yetadi va siz uchun xizmat qilishdan to'xtamaymiz!

Plastik kartasi raqami: 9860170105664412 (Akramova Ozoda nomida)

Kitob muallif (Zoir Akramov) mulki hisoblanadi va ushbu kitobni noqonuniy o'zlashtirib olish qonuniy javobgarlikka tortilishga olib keladi.

Kitobdan maroq bilan foydalanishingizni tilaymiz!

MUALLIFNING ONLAYN INGLIZ TILI KURSLARI

Muallif onlayn tarzda ingliz tilini o'rgatishga o'zini bag'ishlagan va ingliz tilini o'rganishning har qanday darajasi uchun o'z kursi mavjud: Beginner, Elementary, Pre-intermediate, Intermediate, Upper-intermediate hamda IELTS kurslari. Shunday ekan, siz qulaygina uyingizni tark etmay, o'quv markaziga borish va kelish uchun hech qanday qimmatbaho vaqtingizni sarflagamagan holda, ingliz tilini o'zingizga mos darajada, IELTS natijasi 8.0 bo'lgan o'qituvchidan o'rganishingiz mumkin (kelajakda natija ko'tariladi). Har oyning boshida yangi kurslar ochiladi va birinchi 3 dars sinov tariqasida o'tkaziladi, ya'ni birinchi hafta haq to'lamay dastlabki 3 darsni ko'rishingiz mumkin. Ushbu muddat davomida, siz kurs qay tartibda tuzilgani, nimalarga e'tibor berilishi, kurs darajasi sizga to'g'ri kelish-kelmasligini tekshirish imkoniyatiga ega bo'lasiz, va eng ahamiyatlisi, onlayn ta'lim bilan o'quv markazlaridagi ta'limni bir-biriga solishtirish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Har bir kursda grammatika, lug'at boyligini oshirishga, talaffuzni yaxshilashga, tekstlar bilan ishlashga hamda ingliz tilida eshitish, yozish, gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishga birdek e'tibor qaratiladi. O'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobat rivojlantiriladi. Bizdagi onlayn darslar sifati o'quv markazlaridagi ta'lim sifatidan ortiq bo'lsa borki, sira kam emas!

Darslar sifatini baholash uchun hamda kursda ishtirok etish uchun, quyidagi telegram manzil orqali murojaat qilishingiz mumkin: @Zoir_Akramov

Malakali O'qituvchilarni Ishga Qabul Qilamiz

"SAEID AL HAZI" MChJ nomi ostidagi onlayn o'quv markazi xizmatlariga talab tobora oshib bormoqda va butun O'zbekiston hamda boshqa xorijiy mamlakatlardagi yurtdoshlarimiz bizning dars o'tish metodlarimizga tobora ko'proq qiziqish bildirishmoqda. Shu sababli, kompaniya doimiy ravishda kengayib bormoqda va bizga yangi mutaxassis ingliz tili o'qituvchilari zarur. O'quv markazimizda darslar avvaldan video tarzida yozib olingani bois, o'qituvchilar grammatik mavzularni o'quvchilarga jonli tarzda tushuntirib berishlari talab etilmaydi. Ammo, ularning boshqa **mas'uliyatlari** mavjud, shu jumladan:

- O'quvchilar vazifalarni doimiy ravishda bajarib borishini ta'minlash;
- O'quvchilar noodatiy tarzda vazifalarni bajarishni sustlashtirgan yoxud to'xtatib qo'ygan taqdirda, ularning ota-onasini xabardor etish va intizomiy chora ko'rilishini so'rash;
- Guruhdagi o'quvchilar orasida sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish;
- O'quvchilardan har darsda jonli ravishda speaking olish;
- O'quvchilarning pronunciation, writing vazifalarini tekshirib, constructive feedback (written and/or verbal) berish;
- Har darsda, o'quvchilarning progressi to'g'risida hisobot tayyorlash;
- Vazifalarni namunalik bajarib kelayotgan o'quvchilarni guruhda maqtash hamda munosib taqdirlash;
- Vazifalarni qoniqarsiz bajarib kelayotgan o'quvchilarga shaxsan (guruhda emas) dakki berish;

•O'quvchida mavzu bo'yicha savol yoxud tushunmovchilik tug'ilgan taqdirda, javob yoki izoh bilan ta'minlash.

O'qituvchi uchun Talablar:

1. Beginner va Elementary bosqichlardagi o'quvchilarni o'qitish uchun:

Minimum yosh chegarasi: 20

Ish tajribasi: talab etilmaydi

IELTS natijasi: 7.0+ (Listening/Reading eng kamida 7.0; Writing/Speaking eng kamida 6.0)

Ta'lim yo'nalishida universitetda o'qiyotgan yoki diplomi bo'lsa yaxshiroq.

2. Pre-intermediate va Intermediate bosqichlardagi o'quvchilarni o'qitish uchun:

Minimum yosh chegarasi: 20

Ish tajribasi: 1-2 yil (majburiy emas, ammo tajriba bo'lsa, ustunlik siz tomonda)

IELTS natijasi: 7.0+ (Listening/Reading/Writing/Speaking eng kamida 7.0)

Ta'lim yo'nalishida universitetda o'qiyotgan yoki diplomi bo'lsa yaxshiroq.

3. Upper-intermediate va IELTS bosqichlardagi o'quvchilarni o'qitish uchun:

Minimum yosh chegarasi: 20

Ish tajribasi: 1-2 yil (majburiy)

IELTS natijasi: 8.0+ (Listening/Reading eng kamida 8.0; Writing/Speaking eng kamida 7.0)

Ta'lim yo'nalishida universitetda o'qiyotgan yoki diplomi bo'lsa yaxshiroq.

Agar ma'lumotlaringiz yuqoridagi talablarga mos kelsa, o'z rezyumeyingizni quyidagi manzilga yuborishingiz va yanada to'liqroq ma'lumot bilan tanishishingiz mumkin:

Telegram: @Zoir_Akramov

E-mail: akramov2002zoir@gmail.com

Eslatma! Ish uchun nomzod ishga rasman qabul qilinishidan avval, unga nisbatan sinov muddati tayinlanadi hamda uning ish yuritishi tekshirib boriladi!

UNIT 3. MY HOME

Nouns

- ✓ **Address** - manzil
My address is 2, Green Road. – Mening manzilim Grin Ro'ud, 2-uy.
- ✓ **Carpet** - gilam
There is a red carpet on my bedroom floor. – Yotoqxonamning polida qizil gilam bor.
- ✓ **Ceiling** - shift, patalok
The ceiling of my room is white. – Mening xonamning shifti oq rangda.
- ✓ **Curtains** - parda
There are green curtains on the windows. – Derazalarda yashil rangli pardalar bor.
- ✓ **Flat** - do'm, kvartira
We live in a flat in Leicester. – Biz Lesterda kvartirada yashaymiz.
- ✓ **Armchair** - kreslo
There is a big armchair in the living room. – Mehmonxonada katta kreslo bor.
- ✓ **Chair** - stul
She was sitting in her favourite chair. – U o'z sevimli stulida o'tirgandi.
- ✓ **Bed** - yotoq, kravat
I'm really tired, so I'm going to bed. – Men juda charchaganman, shuning uchun yotoqqa ketyapman (= uyquga yotyapman).
- ✓ **Bookcase** - kitob javoni
The books are in the bookcase. – Kitoblar kitob javonida.
- ✓ **Cupboard** - shkaf, javon, idish javoni
It was an old kitchen cupboard. – U eski bir oshxona javoni edi.
- ✓ **Sofa** - divan
Our new sofa is really comfortable. – Bizning yangi divanimiz juda ham qulay.
- ✓ **Table** - stol
We eat at the kitchen table. – Biz oshxona stolda ovqatlanamiz.
- ✓ **Wardrobe** - garderoob
Molly puts her clothes in the wardrobe. – Moli kiyimlarini garderoobga qo'yadi.
- ✓ **Garden** - bog'
There isn't a garden at this house. – Bu hovlida bog' mavjud emas.
- ✓ **Ground/First/Second floor** - birinchi/ikkinchi/uchinchi qavat (Britaniyada ground floor - birinchi qavatni, first floor - ikkinchi qavatni, second floor - uchinchi qavatni bildiradi)
Our flat is on the second floor. – Bizning kvartiramiz uchinchi qavatda.
- ✓ **Housework** - uy ishlari: supur-sudur, chang artish va hokazo
The children help with the housework. – Bolalar uy ishlariga yordamlashadilar.
- ✓ **Key** - kalit
Is this the key to your flat? – Bu kvartirangizning kalitimi?
- ✓ **Bathroom** - vannaxona, hammom
Your toothbrush is in the bathroom. – Sizning tish cho'tkangiz hammomda.

- ✓ **Bedroom** - yotoqxona
There are two bedrooms in my house. – Mening uyimda 2 ta yotoqxona bor.
- ✓ **Kitchen** - oshxona
Is there a table in the kitchen? – Oshxonada stol bormi?
- ✓ **Living room** - mehmonxona (uyning mehmonlar kutiladigan xonasi)
We watch TV in the living room. – Biz mehmonxonada televizor ko'ramiz.
- ✓ **Wall** - devor
There is a photo on the wall. – Devorda surat bor.

Verbs and phrasal verbs

- ✓ **Brush (your teeth)** - (tishlarni) tozalamoq, yuvmoq
Do you brush your teeth before you go to bed? – Uyquga yotishingizdan avval tishlaringizni tozalaysizmi?
- ✓ **Clean** - tozalamoq
My mum cleans the house on Saturdays. – Oyim uyni shanba kunlari tozalaydilar.
- ✓ **Dust** - changini artmoq
My sister and I dust the furniture once a week. – Singlim va men bir haftada bir marta mebellarning changini artamiz.
- ✓ **Feed (your pet)** - (uy jonvorini) ovqatlantirmoq
Do you feed your dog every day? – Kuchugingizni har kuni ovqatlantirasizmi?
- ✓ **Get up** - o'rnidan turmoq
We get up at 7 am and go to school at 8 am. – Biz tonggi soat 7 da turamiz va 8 da maktabga boramiz.
- ✓ **Put away** - joyiga qo'yimoq
Put your books away now. It's time to go home. – Endi kitoblaringizni joyiga qo'ying. Uyga ketish vaqti bo'ldi.
- ✓ **Share** - baham ko'rmoq, bo'lishmoq, birga foydalanmoq
Do you share a bedroom with your sister? – Yotoqxonadan singlingiz bilan birga foydalanasizmi? (= Singlingiz bilan bir yotoqxonada uxlaysizmi?)
- ✓ **Tidy** - tozalamoq, yig'ishtirmoq
I tidy my room at the weekend. – Men xonamni dam olish kunida yig'ishtiraman.
- ✓ **Wash** - yuvmoq
We wash our hands in the bathroom. – Qo'llarimizni vannaxonada yuvamiz.
- ✓ **Water** - sug'ormoq
Please water the flowers in the garden. – Iltimos, bog'dagi gullarni sug'orib qo'ying.

Adjectives and adverbs

- ✓ **Clean** - toza
Do you know where my clean shirt is? – Toza ko'ylagim qayerdaligini bilasizmi?
- ✓ **Comfortable** - qulay
This is a very comfortable armchair. – Bu juda ham qulay kreslo.

- ✓ **Daily** - har kunlik
My dad has a daily walk before work. – Dadam ish(ga ketish)dan oldin har kunlik piyoda sayrga chiqadi.
- ✓ **Hard-working** - mehnatkash
Sam is hard-working. He always gets high test scores. – Sem mehnatkash. U har doim testlardan yuqori ball oladi.
- ✓ **Lazy** - dangasa, ishyoqmas
Evie is lazy. She doesn't study. – Ivi dangasa. U o'qimaydi.
- ✓ **Messy** - betartib, tartibsiz
Your room is messy. Put your things away in the cupboard. – Xonangiz tartibsiz. Narsalaringizni shkafga o'z joyiga qo'ying.
- ✓ **Daily** - har kuni
We clean the house daily. – Biz uyni har kuni tozalaymiz.
- ✓ **Downstairs** - pastga
I washed my face and went downstairs for breakfast. – Yuzimni yuvdim va nonushta uchun pastga tushdim.
- ✓ **Upstairs** - tepaga
My sister went upstairs to do her homework in her room. – Singlim xonasida uy vazifalarini bajarish uchun tepaga chiqib ketdi.

Phrases

- ✓ **Do the cooking/ironing/shopping/vacuuuming/washing/washing-up** -
pishirmoq/dazmollamoq/bozor qilmoq/pliso's qilmoq /kirlarni yuvmoq/idish tovoqlarni yuvmoq
I do the washing in our house and my mum does the ironing. – Bizning uyda men kirlarni yuvaman, oyim esa dazmollaydilar.
- ✓ **Get dressed** - kiyinmoq
I can get dressed in two minutes when I'm late for school. – Maktabga kech qolgan paytimda, 2 daqiqa ichida kiyina olaman.
- ✓ **Get ready (for school)** - (maktabga) tayyorlanmoq
We get up at 7.30 am and get ready for school. – Biz tonggi soat 7.30 da turamiz va maktabga tayyorgarlik ko'ramiz.
- ✓ **Go home/to bed** - uyga bormoq/uyquga yotmoq
We go to bed at about 10 pm. – Biz taxminan tungi soat 10 larda uyquga yotamiz.
- ✓ **Help someone with** - biron kimga biron ishda yordam bermoq
My mum helps me with my homework. – Oyim menga uyga vazifalarim bilan yordamlashadilar.
- ✓ **Make your bed** - to'shagini yig'ishtirmoq, o'rnini yig'ishtirmoq
Tidy up your room. And don't forget to make your bed! – Xonangizni yig'ishtiring. Yotog'ingizni yig'ishtirishni ham unutmang!
- ✓ **Make a mess** - hamma yoqni to'zitmoq, yoyib tashlamoq
My brother makes a mess in our bedroom and I have to clean it. – Mening ukam yotoqxonamizni yoyib tashlaydi, men esa uni tozalashimga to'g'ri keladi.

- ✓ **Make a snack** - tezgina yegulik tayyorlamoq
When I'm late for work, my wife makes a snack for me. – Ishga kech qolayotgan paytimda, xotinim men uchun tezgina yegulik tayyorlab beradi.
- ✓ **Tell someone to do something** - biron kimga biron narsa qilishni aytmoq, buyurmoq
My teachers told me to do a project. – O'qituvchilarim menga bir loyihani amalga oshirishni aytishdi.

Word formation

- ✓ **Agree** - fikriga qo'shilmoq
I totally agree with you! – Men sizning fikringizga to'liq qo'shilaman!
- ✓ **Disagree** - fikriga qo'shilmaslik, kelishmaslik
We sometimes disagree but we never fight. – Biz ba'zan kelisha olmaymiz, lekin hech qachon urushmaymiz.
- ✓ **Comfortable** - qulay
My bed is very comfortable—it's pleasant to sit on. – Mening kravatim juda qulay—uni ustiga o'tirish yoqimli.
- ✓ **Uncomfortable** - noqulay
This chair is uncomfortable—can I sit there? – Bu stul noqulay ekan—anavi yerda o'tirsam bo'ladimi?
- ✓ **Day** - kun
We spent five days in Paris. – Biz Parijda 5 kun o'tkazdik.
- ✓ **Daily** - har kunlik
Kieran takes the dog for its daily walk. – Kieran itni har kunlik sayrga olib chiqadi.
- ✓ **Daily** - har kuni
I drink three glasses of water daily. – Men har kuni 3 stakan suv ichaman.
- ✓ **Dirt** - kir
The white rug really shows the dirt. – Oq gilamcha rostdan ham kirni ko'rsatadi.
- ✓ **Dirty** - kir, iflos
When my clothes are dirty, I wash them and iron them. – Kiyimlarim kir bo'lganida, men ularni yuvaman va dazmollayman.
- ✓ **Dust** - chang
He brushed the dust off his clothes. – U changni kiyimidan tozalab tashladi.
- ✓ **Dust** - changni artmoq
I always dust the furniture in my room. – Men xonamdagi mebellarning changini doimo artaman.
- ✓ **Dusty** - chang bosgan
The old house was very dusty and dirty. – Eski uy juda chang bosgan va kir edi.
- ✓ **Laziness** - dangasalik
You haven't cleaned your room. I don't like your laziness! – Xonangizni tozalamabsiz. Dangasaligingiz menga yoqmayapti!
- ✓ **Lazy** - dangasa, ishyoqmas, yalqov

He was not stupid, just lazy. – U tentak emas edi, shunchaki dangasa edi.

- ✓ **Mess** – tartibsizlik
'What a mess!' she said. – 'Bu qanday tartibsizlik!' dedi u.
- ✓ **Messy** – tartibsiz, betartib
Your room is always messy. Why don't you clean it? – Sizning xonangiz har doim tartibsiz holatda. Nima uchun tozalamaysiz?
- ✓ **Quick** – tez
Have you finished already? That was quick! – Allaqachon tugatib bo'ldingizmi? Bu juda tez bo'ldi!
- ✓ **Quickly** – tezgina, tezlik bilan
Elliot was hungry, so he ate very quickly. – Eliet och edi, shuning uchun u juda tez yedi.

UNIT 6. HOBBIES AND PASTIMES

Nouns

- ✓ **Birthday party** - tug'ilgan kun bazmi
I'm going to my BFF's birthday party next week. – Kelasi hafta men eng yaqin do'stimning tug'ilgan kun bazmiga boraman.
- ✓ **Fancy dress party** - chiroyli va bashang kiyimlar kiyib boriladigan bazm, maskarad
I'm going to a fancy dress party. – Men maskaradga boraman.
- ✓ **Pyjama party** - shunaqangi bazmki, unda siz va boshqa mehmonlar bazmni uyushtirgan do'stingizning uyida tunab qolasiz bir kecha (asosan yoshlar bunday bazm uyushtirishadi)
Our neighbours invited our son to a pyjama party. – Qo'shnilarimiz o'g'limizni bazmga taklif qilishdi.
- ✓ **Surprise party** - bazm sababchisiga aytilmay tashkillashtirilgan bazm, syurpriz qilingan bazm
She's planning a surprise party for her boyfriend. – U yoqtirgan yigiti uchun syurpriz bazm rejalashtiryapti (= yigitiga bazm haqida aytmagan, uni bexabar qoldirgan, syurpriz qilmoqchi).
- ✓ **Board game** - taxtachada o'ynaladigan o'yin, misol uchun shaxmat, monopoliya, narda
Backgammon is my grandad's favourite board game. – Narda bobomning sevimli stol o'yini.
- ✓ **Computer game** - kompyuter o'yini
My missus doesn't like computer games. – Mening yoqtirgan qizim kompyuter o'yinlarini yoqtirmaydi.
- ✓ **Video game** - video o'yin
We play video games every day. – Biz har kuni video o'yinlar o'ynaymiz.
- ✓ **Camera** - fotokamera
My new camera takes great pictures. – Mening yangi fotokameram zo'r rasmlar oladi.
- ✓ **Cartoon** - multfilm
Megan's watching cartoons on TV now. – Megen hozir televizorda multfilm ko'ryapti.
- ✓ **Cinema** - kinoteatr
Do you like watching films at the cinema or on TV? – Siz filmlarni kinoteatrda ko'rishni yoqtirasizmi yoki televizordami?
- ✓ **Disco** - diskoteka
I danced a lot at the school disco. – Men maktab diskotekasida rosa raqsga tushdim.

- ✓ **Film** - film, kino
Let's stay in and watch a film. – Keling, uyda qolib film tomosha qilamiz.
- ✓ **Folk music** - milliy musiqa
We sometimes listen to folk music. – Biz ba'zan milliy musiqa tinglab turamiz.
- ✓ **Pop music** - pop musiqa: 1950-yildan beri mashhur bo'lib kelayotgan, kuchli ritmga ammo oddiy ohangga ega bo'lgan musiqa turi
They listen to pop music and watch trash TV all day. – Ular pop musiqasi tinglaydilar va kuni bo'yi bo'lmag'ur televizorni tomosha qiladilar.
- ✓ **Rap music** - rep musiqa: ushbu musiqa turida qo'shiq so'zlari kuylanmaydi, balki tez aytiladi
He's using his rap music to spread the message that violence is wrong. – U zo'ravonlik noto'g'ri ekanligi haqidagi xabarni tarqatish uchun o'zining rep musiqasidan foydalanmoqda.
- ✓ **Rock music** - rok musiqa: elektrik gitara va barabanlarda ijro etiladigan baland shovqinli musiqa turi
He is a big name in the world of rock music. – U rok musiqasi olamida mashhur inson.
- ✓ **Free time** - bo'sh vaqt
What do you do in your free time? – Bo'sh vaqtingizda nima bilan shug'ullanasiz?
- ✓ **Hobby** - hobbi, sevimli mashg'ulot
My favourite hobby is reading. – Mening sevimli mashg'ulotim kitob o'qish.
- ✓ **Drums** - baraban, nog'ora, do'mbira
Leo plays the drums in his band. – Leo musiqiy guruhida baraban chaladi.
- ✓ **Guitar** - gitara
I want to learn to play the guitar. – Men gitara chalishni o'rganishni istayman.
- ✓ **Piano** - pianino, fortepiona
There's a piano in my house, but I don't know how to play it. – Uyimda pianino bor, ammo uni qanday chalishni bilmayman.
- ✓ **Trumpet** - truba
Liam is learning to play the trumpet. – Liem truba chalishni o'rganyapti.
- ✓ **Violin** - skripka
I like listening to him play the violin. – Men uning skripka chalishini tinglashni yotiraman.
- ✓ **Picture** - rasm, surat
This picture shows me on my birthday. – Bu surat meni tug'ilgan kunimni ko'rsatadi.
- ✓ **Song** - qo'shiq
I want to play that song again. I like it. – Bu qo'shiqni qayta qo'yishni xohlayman. U menga yoqdi.
- ✓ **Theatre** - teatr
There isn't a theatre in my town—only a cinema. – Mening shahrimda teatr mavjud emas—bor yo'g'i kinoteatr bor.
- ✓ **TV programme** - teledastur
It's my favourite TV programme—I never miss an episode. – U mening sevimli teledasturim—men birontayam episodni o'tkazib yubormayman.

Verbs and phrasal verbs

- ✓ **Draw** - chizmoq
Katie is drawing pictures in her sketchpad. – Ketı rasm albomida rasmlar chizyapti.
- ✓ **Enjoy** - rohatlanmoq, mazza qilmoq, yoqtirmoq
My sister and I enjoy going to the cinema. – Singlim va men kinoga borishni yoqtiramiz.
- ✓ **Go out** - biror tadbirda qatnashish yoki vaqtni biror joyda o'tkazish uchun uydan chiqmoq
We don't go out when we have school the next day. – Ertasi kuni maktab bo'lganda biz ko'chaga chiqmaymiz (aylangani).
- ✓ **Laugh** - kulmoq
My sister is laughing at me! She thinks I'm funny! – Opam mening ustimdan kulyaptilar! Ularning o'ylashlaricha men kulguli ekanman!
- ✓ **Paint** - bo'yamoq / chizmoq
I want to learn to paint pictures. – Men rasm chizishni o'rganishni istayman.
- ✓ **Relax** - dam olmoq, hordiq chiqarmoq
After school, I come home to relax. – Maktabdan so'ng, men dam olish uchun uyga kelaman.
- ✓ **Spend** - (vaqt) sarflamoq, o'tkazmoq
Do you spend a lot of time in your bedroom? – Yotoqxonangizda ko'p vaqt o'tkazasizmi?
- ✓ **Sing** - kuylamoq
Oscar is singing and playing the guitar now. – Oskar hozir qo'shiq kuylayapti va gitara chalyapti.
- ✓ **Stay in** - uyda qolmoq, biror joyga borishni o'rniga vaqtni uyda o'tkazmoq
I like to stay in and watch TV on Sundays. – Yakshanba kunlari men uyda qolib televizor tomosha qilishni yoqtiraman.
- ✓ **Watch (TV)** - (televizor) tomosha qilmoq
Do you watch TV every day? – Siz har kuni televizor tomosha qilasizmi?

Adjectives and adverbs

- ✓ **Amazing** - ajoyib
I love this film. It's amazing! – Bu kino menga juda yoqadi. U ajoyib!
- ✓ **Boring** - zerikarli
This film is boring. Let's play a game. – Bu kino zerikarli. Keling bir o'yin o'ynaymiz.
- ✓ **Difficult** - qiyin
This test is very difficult. I don't understand it. – Bu test juda qiyin. Uni tushunmayapman.
- ✓ **Exciting** - hayajonli, qiziqarli
This film is very exciting. I'm enjoying it. – Bu film juda qiziqarli. Men undan zavqlanyapman.
- ✓ **Favourite** - sevimli
My favourite programme is on TV now. – Mening sevimli dasturim hozir televizorda ko'rsatilyapti.
- ✓ **Funny** - kulgili, qiziq
This is a very funny cartoon. – Bu juda kulgili multfilm.
- ✓ **Lovely** - ajoyib
It's a lovely day-let's go for a walk. – Bugun ajoyib kun-keling sayrga chiqamiz.
- ✓ **Really** - chindan ham, juda

I think rap music is really great! – Men o'ylashimcha rep juda zo'r!

Phrases

- ✓ **Be good at something/doing something** - biror nima qilishda yaxshi bo'lmoq, yaxshi qila olmoq
I enjoy learning Japanese but I'm not good at it. – Men yaponchani o'rganishni yoqtiraman, lekin yaponchada yaxshi emasman.
- ✓ **Feel bored** - zerikkan his qilmoq
I feel bored when I watch a film and it's bad. – Kino ko'rganimda va u yomon bo'lganda, men o'zimni zerikkan his qilaman.
- ✓ **Go to the cinema/theatre** - kinoga/teartga bormoq
Lexi often goes to the cinema to watch films with her friends. – Leksi do'stlari bilan kino ko'rish uchun tez-tez kinoga borib turadi.
- ✓ **Have fun** - ko'ngilchog'lik qilmoq, xursandchilik qilmoq, mazza qilmoq
We usually have fun in our lessons. They aren't boring! – Biz odatda darslarimizda mazza qilamiz. Ular zerikarli emas!
- ✓ **Have time to do something** - biror narsa qilishga vaqti bo'lmoq
I don't have time to eat breakfast before school. – Maktab oldidan nonushta qilgani vaqtim yo'q.
- ✓ **Have/Throw a party** - bazm uyushtirmoq
We throw a big party every summer. All our friends come to our house. – Biz har yozda katta bazm uyushtiramiz. Barcha do'stlarimiz bizning uyimizga kelishadi.
- ✓ **Listen to music** - musiqa tinglamoq
I listen to music on my phone in my room. – Men xonamda telefonimda musiqa tinglayman.
- ✓ **Play/Have a game (of)** - o'yin o'ynamoq
Let's play a game of basketball! – Keling basketbol o'ynaymiz!
- ✓ **Read a book** - kitob o'qimoq
I go to bed and read a book at about 10 pm. – Men soat taxminan 10 larda yotoqqa yotaman va kitob o'qiyman.
- ✓ **Take a picture/photo** - suratga olmoq
I haven't taken a photo with my new camera yet. – Men yangi kameram bilan hali rasm olib ko'rganim yo'q.

Word formation

- ✓ **Drawing** - rasm (qalamda chizilgani, kamerada olingani emas)
I did a drawing in my Art lesson. – Rassomchilik darsida rasm chizdim.
- ✓ **Draw** - chizmoq
You draw beautifully. – Siz chiroyli rasm chizasiz.
- ✓ **Enjoy** - mazza qilmoq, yoqmoq
Thanks for a great evening. I really enjoyed it. – Ajoyib oqshom uchun tashakkur. Men juda mazza qildim.
- ✓ **Enjoyable** - rohatbaxsh, yoqimli, maroqli

The trip was very enjoyable and I had a great time. – Sayohat juda yoqimli bo'ldi va men vaqtimni ajoyib o'tkazdim.

- ✓ **Fun** - maroq, xursandchilik

We had a lot of fun at Sarah's party. – Saraning bazmida juda mazza qildik (= rosa xursandchilik qildik).

- ✓ **Funny** - kulgili

You're funny! You always make me laugh! – Siz kulgisiz! Meni har doim kuldirasiz!

- ✓ **Luck** - omad

I never had much luck with women. – Ayollar borasida hech qachon omadim chopmagan.

- ✓ **Lucky** - omadli

You were very lucky to find a good smartphone for that price. – Bu narxda yaxshi bir smartfon topganingiz bu sizning omadingiz.

- ✓ **Music** - musiqa

The music was coming from next door. – Narigi eshikdan musiqa jaranglayotgan edi.

- ✓ **Musician** - musiqachi

He's a great musician—he can play the guitar, violin and piano. – U ajoyib musiqachi—u gitara, skripka hamda pianina chala oladi.

- ✓ **Musical** - musiqani yaxshi tushunadigan

I'm not very musical. I can't play the drums or the piano. – Men musiqani juda ham yaxshi tushunmayman. Men nog'ora yoki pianina chala olmayman.

- ✓ **Painter** - rassom, suratkash

Marc Chagall was a famous Russian painter. – Mark Chagal mashhur rus rassomi bo'lgan.

- ✓ **Painting** - rasm, surat (qalamda chizilgani, kamerada olingani emas)

She didn't want to show the painting until it was finished. – U surat bitguniga qadar, uni ko'rsatishni xohlamadi.

- ✓ **Paint** - rasm chizmoq

My mother paints well. – Oyim yaxshi rasm chizadilar.

- ✓ **Player** - o'yinchi, musiqa asbobi chaluvchisi

Brandon is a great guitar player. I love listening to him. – Brenden ajoyib gitara chaluvchisi. Uni tinglash menga yoqadi.

- ✓ **Play** - o'ynamoq, musiqa asbobi chalmoq

I'm learning to play sax. – Men saksafonni chalishni o'rganyapman.

- ✓ **Reader** - kitobxon, blogni kuzatib boruvchi obunachilar

Does your blog have a lot of readers? – Blogingizda ko'p kuzatib boruvchilar bormi?

- ✓ **Reading** - o'qish

Reading books is a great hobby. – Kitob o'qish ajoyib mashg'ulot.

- ✓ **Read** - o'qimoq

I didn't have time to read the novel. – Romanni o'qishga vaqtim bo'lmadi.

- ✓ **Relax** - dam olmoq

He was relaxing at home, watching TV. – U televizor tomosha qilib uyda hordiq chiqaryotgandi.

- ✓ **Relaxing** - orombaxsh, hordiq chiqaradigan

We didn't have school today, so we had a relaxing afternoon in the sun. – Bugun maktab yo'q edi, shuning uchun tush vaqtini oftob ostida orombaxsh o'tkazdik.

- ✓ **Singer** - qo'shiqchi

Adele is my favourite singer. – Adel mening sevimli qo'shiqchim.

- ✓ **Sing** - kuylamoq

She usually sings in the shower. – U odatda dush qabul qilayotganda kuylaydi.

- ✓ **Song** - qo'shiq

Can you play me a song on the piano? – Pianinada menga bitta qo'shiq chalib bera olasizmi?

UNIT 9. SCHOOL LIFE

Nouns

- ✓ **Blackboard/Whiteboard** - bo'rda yoziladigan doska/markerda yoziladigan doska

The teacher writes things on the whiteboard. – O'qituvchi narsalarni doskaga yozadi.

- ✓ **Class** - sinf

There are 20 students in our class. – Bizning sinfimizda 20 nafar o'quvchi bor.

- ✓ **Classroom** - sinf xonasi

The pupils are not allowed to use their phones in the classroom. – O'quvchilar sinf xonasida telefondan foydalanishiga ruxsat berilmagan.

- ✓ **Classmate** - sinfdosh

I often laugh with my classmates. – Men tez-tez sinfdoshlarim bilan hazillashib-kulishib turaman.

- ✓ **Chess/Dancing/Drama/Language/Maths/Science Club** -

shaxmat/raqs/drama/til/matematika/aniq fanlar to'garagi

We learn things about chess at our Chess Club. – Biz shaxmat to'garagida shaxmat to'g'risidagi narsalarni o'rganamiz.

At Dancing Club we learn to do dances. – Raqs to'garagida biz raqs tushishni o'rganamiz.

I like Drama Club because we learn about the theatre. – Menga drama to'garagi yoqadi chunki biz teatr haqida o'rganamiz.

At Language Club we learn English words and phrases. – Til to'garagida biz inglizcha so'zlar va birikmalarni o'rganamiz.

Maths Club teaches us some of the fun things about Maths. – Matematika to'garagi bizga matematika fani to'g'risidagi ba'zi qiziqarli narsalarni o'rgatadi.

We're learning about spiders in Science Club this week. – Bu hafta biz aniq fanlar to'garagida o'rgimchaklar haqida o'rganyapmiz.

- ✓ **Homework** - uyga vazifa

Do you get a lot of homework at your school? – Maktabingizda ko'p uy vazifasi olasizmi?

- ✓ **Lesson** - dars

What time is your Maths lesson today? – Bugungi matematika darsingiz soat nechada?

- ✓ **Pupil** - (faqatgina) maktab o'quvchi

There are 23 teachers and 450 pupils in my school. – Mening maktabimda 23 nafar o'qituvchi va 450 nafar o'quvchi bor.

- ✓ **Bag** - papka

- I carry my books in my school bag. – Men kitoblarimni papkamda olib yuraman.*
- ✓ **Notebook** - daftar
I write things in this notebook. – Men narsalarni ushbu daftarga yozib olaman.
- ✓ **Pencil case** - penal
I always have my pencil case with me in the lesson. – Darsda penalim doimo men bilan bo'ladi.
- ✓ **Pencil sharpener** - qalam ochgich
You need a pencil sharpener when your pencil breaks. – Qalamingiz singanida, sizga qalam ochgich kerak bo'ladi.
- ✓ **Rubber** - o'chirg'ich
When I draw, I use a pencil but I never use a rubber. – Qachonki men rasm chizganimda, men qalamdan foydalanaman, lekin men hech qachon o'chirg'ich ishlatmayman.
- ✓ **Ruler** - lineyka, chizg'ich
I have a ruler in my pencil case. – Penalimda chizg'ich bor.
- ✓ **Art** - tasviriy san'at fani (rassomchilik)
I love Art because we draw and paint in our lessons. – Menga tasviriy san'at yoqadi chunki biz darslarimizda chizamiz va bo'yaymiz.
- ✓ **Geography** - geografiya fani
We are learning about Africa in Geography at the moment. – Biz ayni damda geografiya fanida Afrika haqida o'rganyapmiz.
- ✓ **Handicraft** - mehnat darsi
Handicraft is my favourite subject. – Mehnat darsi mening sevimli fanim.
- ✓ **History** - tarix fani
Today we are learning about the 1800s in History. – Bugun biz tarixda darsida 1800-yillar haqida o'rganyapmiz.
- ✓ **IT (Information Technology)** - informatika texnologiyalari fani
I have IT once a week. I use a computer in those lessons. – Menda bir haftada bir marta informatika darsi bor. Men u darslarda kompyuterdan foydalanaman.
- ✓ **Literature** - adabiyot fani
My brother is reading Tolstoy in Literature this week. – Ukam bu hafta adabiyot fanidan Tolstoyni o'qiyapti.
- ✓ **Maths** - matematika fani
I'm not good with numbers, so Maths is hard for me. – Men raqamlar bilan yaxshi emasman, shuning uchun matematika men uchun qiyin.
- ✓ **Music** - musiqa fani
Music is my favourite subject–I love to sing and play the piano. – Musiqa mening sevimli fanim–men qo'shiq kuylash va pianina chalishni yoqtiraman.
- ✓ **PE (Physical Education)** - jismoniy tarbiya fani
In PE we sometimes play basketball. – Jismoniy tarbiya darsida biz ba'zan basketbol o'ynaymiz.
- ✓ **Science** - aniq fanlar jamlanmasi: fizika + kimyo + matematika + biologiya (rivojlangan mamlakatlarda alohida shunday fan mavjud)
I love Science. We learn some interesting things in our lessons. – Men aniq fanlarni yoqtiraman. Darslarimizda bir qancha qiziqarli narsalarni o'rganamiz.

- ✓ **Term** - chorak (maktabda), semestr (universitetda)
There are three terms in the school year. – Maktab o'quv yilida uchta chorak bor.
- ✓ **Test/Exam** - test/imtihon
Our teacher often gives us tests. – O'qituvchimiz bizga tez-tez test berib turadilar.
- ✓ **Timetable** - o'quv jadvali, raspisaniya
According to the timetable, Maths is on Friday. – O'quv jadvaliga ko'ra, matematika juma kuni bo'lar ekan.

Verbs and phrasal verbs

- ✓ **Check** - tekshirmoq
I always check that my books are in my bag. – Men doimo kitoblarim papkamda ekanligini tekshiraman (ishonch hosil qilaman).
- ✓ **Choose** - tanlamoq
What did you choose to wear to the party? – Bazmga qanday kiyim kiyishni tanladingiz?
- ✓ **Fail** - imtihondan yiqilmoq
Jamie didn't study, so he failed his English test. – Jeymi o'qigani yo'q, shuning uchun u ingliz tili testidan yiqildi.
- ✓ **Know** - bilmoq
Do you know the answer? I don't. – Siz javobni bilasizmi? Men bilmayman.
- ✓ **Learn** - o'rganmoq
Is it hard to learn Russian? – Rus tilini o'rganish qiyinmi?
- ✓ **Miss** - o'tkazib yubormoq, qoldirmoq, bormaslik
I never miss school. I go there every day. – Men hech qachon maktabni qoldirmayman. Men u yerga har kuni boraman.
- ✓ **Pass** - imtihondan muvaffaqiyatli o'tmoq
I'm really happy because I passed all my exams! – Men juda xursandman chunki hamma imtihonlarimdan o'tdim!
- ✓ **Remember** - eslamoq, yodida bo'lmoq
Do you remember the name of the film we watched last month? – O'tgan oyda ko'rgan filmimizning nomi yodingizdami?
- ✓ **Study** - o'qimoq, dars qilmoq
On Sunday evening, I usually study and do my homework. – Yakshanba kunlari kechki payt, odatda men dars qilaman va uyga vazifamni bajaraman.
- ✓ **Teach** - o'qitmoq, dars bermoq
Mr Brown teaches us Maths. – Janob Braun bizga matematikadan dars beradi.

Adjectives and adverbs

- ✓ **Boring** - zerikarli
I like my school subjects. They're not boring. – Men maktab fanlarimni yoqtiraman. Ular zerikarli emas.
- ✓ **Correct** - to'g'ri

Yes, that is the correct answer. Well done! – Ha, bu to'g'ri javob. Barakalla!

✓ **Easy** - oson

My homework is easy. I usually spend an hour doing it. – Mening uy vazifam oson. Odatda men uni bajarishga bir soat sarflayman.

✓ **Fun** - maroqli, qiziqarli

I like our Art lessons. They are fun! – Menga tasviriyl san'at darslarimiz yoqadi. Ular juda maroqli!

✓ **Hard** - qiyin

This is a really hard subject. I don't understand it. – Bu juda qiyin fan. Men uni tushunmayman.

✓ **Interesting** - qiziqarli

I think Maths is really interesting but Misha thinks it's boring. – O'ylashimcha, matematika fani rosa qiziqarli, lekin Misha uni zerikarli deb o'ylaydi.

✓ **Right** - to'g'ri

Is this the right answer? – Bu to'g'ri javobmi?

✓ **Wrong** - xato, noto'g'ri

I'm sorry—that is the wrong answer. – Afsusdaman—lekin bu xato javob.

✓ **Hard** - qattiq, tirishib

I want to study hard and get a good grade in my test. – Men tirishib o'qishni va testimda yaxshi baho olishni istayman.

✓ **Right** - to'g'ri

I got one answer right and the others were wrong. – Men bitta javobni to'g'ri topdim, lekin qolganlari noto'g'ri bo'ldi.

✓ **Wrong** - xato, noto'g'ri

I drew my picture wrong, so I had to start again. – Men suratimni noto'g'ri chizib qo'ydim, shuning uchun uni qayta boshlashga majbur bo'ldim.

Phrases

✓ **Be interested in** - ga qiziqqan

I'm very interested in music. – Men musiqaga juda qiziqaman.

✓ **Cheat in a test/an exam** - testda/imtihonda g'irromlik qilmoq, shpargalkadan foydalanmoq

Students who cheat in an exam will fail. – Imtihonda g'irromlik qiladigan o'quvchilar imtihondan yiqiladilar.

✓ **Do (your) homework** - uyga vazifani bajarmoq

I do my homework between 6 pm and 7 pm. – Men uyga vazifamni kechki soat 6 va 7 orasida bajaraman.

✓ **Fail a test/an exam** - testdan/imtihondan yiqilmoq

Failing one exam is not the end of the world. – Bittagina imtihondan yiqilish hayot tugadi degani emas.

✓ **Pass a test/an exam** - testdan/imtihondan muvaffaqiyatli o'tmoq

I'm really happy when I pass a test at school. – Maktabda testdan muvaffaqiyatli o'tganimda juda xursand bo'laman.

✓ **Find something hard/easy** - biror narsani qiyin/oson deb hisoblamok

I find Geography easy. It's my favourite subject. – Men geografiyani oson deb hisoblayman. U mening sevimli fanim.

- ✓ **Get a good/bad mark** - yaxshi/yomon baho olmoq
When we get a bad mark at school, our teachers call our parents. – Maktabda yomon baho olganimizda, o'qituvchilarimiz ota-onamizga qo'ng'iroq qilishadi.
- ✓ **Go to school** - maktabga bormoq
My sister is only four. She doesn't go to school. – Singlim bor yo'g'i to'rt yoshda. U maktabga bormaydi.
- ✓ **Have/Take/Do a test/an exam** - test/imtihon topshirmoq
Go to bed–you have a test in English tomorrow. – Uyquga yoting–ertaga ingliz tilidan imtihoningiz bor.
- ✓ **Make a mistake** - xato qilmoq
I made a mistake in the test but I passed it. – Testda bitta xato qildim, lekin muvaffaqiyatli o'tdim.
- ✓ **Pay attention to** - ga diqqatini qaratmoq, e'tibor bermoq
Please pay attention to me. What I'm saying is important. – Iltimos, diqqatingizni menga qarating. Aytayotgan gapim muhim.

Word formation

- ✓ **Begin** - boshlamoq
When does the concert begin? – Konsert qachon boshlanadi?
- ✓ **Beginner** - biror narsani o'rganishni endigina boshlagan odam
I can't play the violin very well–I'm a beginner. – Skripkani juda yaxshi chala olmayman–men endi boshlovchiman.
- ✓ **Beginning** - boshlanishi
In the beginning, I didn't like my new school. – Boshida, yangi maktabim menga yoqmagandi.
- ✓ **Choose** - tanlamoq
Voters will choose their favourite candidate. – Ovoz beruvchilar o'zlariga yoqqan nomzodni tanlaydilar.
- ✓ **Choice** - tanlov
You have a choice for dinner–vegetables or pasta. – Kechki ovqat uchun tanlov bor–sabzavotlar yoki makaron.
- ✓ **Correct** - to'g'ri
Only one of the answers is correct. – Javoblarning faqatgina bittasi to'g'ri.
- ✓ **Incorrect** - noto'g'ri
Sorry, but your answer is incorrect. Does anyone know the right answer? – Afsus, lekin javobingiz noto'g'ri. Kimdir to'g'ri javobni biladimi?
- ✓ **Educate** - ta'lim bermoq
The Ormerod School educates handicapped children. – Ormerod Maktabi imkoniyati cheklangan (aqlan yoki jismonan zaif) bolalarga ta'lim beradi.
- ✓ **Education** - ta'lim

You go to school to get an education. It's important to learn things. – Maktabga ta'lim olish uchun borasiz. Bu narsa o'rganish uchun muhim.

✓ **Know** - bilmoq

As you know, Emma and I are old friends. – Bilganingizdek, Emma va men eski do'stlarmiz.

✓ **Knowledge** - bilim

I'm amazed by my dad's knowledge. He knows lots of things! – Dadamning bilimi meni lol qodiradi. U juda ko'p narsa biladi!

✓ **Spell** - harflab aytmoq/yozmoq

How do you spell your surname? – Familyangiz qanday yoziladi?

✓ **Spelling** - imlo: so'zlarni to'g'ri yozish san'ati

Spelling is important. You won't get good marks in the test if you spell words wrong. – So'zlarni imloviy jihatdan to'g'ri yozish muhimdir. Agar so'zlarni noto'g'ri harflar bilan yozsangiz, testda yaxshi baho olmaymiz.

✓ **Study** - o'qimoq

She studied at New College, Oxford. – U Oksford shahridagi Nyu Kollejida o'qigan.

✓ **Student** - o'quvchi: maktab o'quvchisi, universitet o'quvchi, o'quv markazida biror narsa o'rganadigan o'quvchi, istalgan turdagi o'quvchi

Matthew is an Art student. He wants to become a painter. – Masyu rassomchilik fakulteti o'quvchisi. U rassom bo'lishni xohlaydi.

✓ **Teach** - o'qitmoq, dars bermoq

She teaches at our local school. – U mahalliy maktabda dars beradi.

✓ **Teacher** - o'qituvchi

Pay attention to what your teachers tell you to do. – O'qituvchilaringiz sizga nima qilishingiz kerakligini aytishayotganiga e'tibor bering.

UNIT 12. MAKING FRIENDS AND GETTING TO KNOW PEOPLE

Nouns

✓ **Adult** - voyaga yetgan odam

There were 20 children and 5 adults at the party. – Bazmda 20 nafar bolalar va 5 nafar kattalar bor edi.

✓ **(Best) friend** - (eng yaxshi) do'st

My best friend's name is Millie. We get on really well. – Mening eng yaxshi do'stimning ismi Mili. Biz juda yaxshi munosabatdamiz.

✓ **Child/Kid** - bola

When I was a child, I loved watching cartoons on TV. – Bolaligimda men televizorda multfilmlar tomosha qilishni yoqtirardim.

✓ **Aunt** - xola yoki amma

That's my aunt. She's my mum's sister. – Bu mening xolam. U oyimning opasi/singlisi.

✓ **Brother** - aka yoki uka

My brother is 15 and my sister is 12. – Ukam 15 yoshda, singlim esa 12 da.

✓ **Father** - ota, dada

My father met my mother in Vladivostok in 1996. – Dadam oyimni 1996-yilda Vladivostokda uchratganlar.

- ✓ **Grandmother/Grandfather** - buvi/bobo
My grandmother sometimes helps me to do my homework. – Buvim ba'zan uy vazifamni bajarishimga yordam beradilar.
- ✓ **Mother** - ona, oyi
My mother works as a dentist. – Oyim tish shifokori bo'lib ishlaydilar.
- ✓ **Nephew** - o'g'il bola jiyan
That's my nephew. He's my brother's son. – Bu mening jiyanim. U akamning o'g'li.
- ✓ **Niece** - qiz bola jiyan
That's my niece. She's my brother's daughter. – Bu mening jiyanim. U akamning qizi.
- ✓ **Sister** - opa yoki singil
I am from a big family. I have two brothers and three sisters. – Men katta oiladan chiqqanman. Mening ikkita aka-ukam va uchta opa-singillarim bor.
- ✓ **Uncle** - tog'a yoki amaki
That's my uncle. He's my mum's brother. – Bu mening tog'am. U oyimning ukasi/akasi.
- ✓ **Guy** - bola
I like my brother. He's a good guy. – Akam menga yoqadi. U yaxshi bola.
- ✓ **Guys** - bolalar
How are you doing, guys? – Ishlaringiz qanday, bolalar? (= Yaxshimisizlar, bolalar?)
- ✓ **Neighbour** - qo'shni
My neighbour lives on the first floor and I live on the second. – Qo'shnim 1-qavatda yashaydi, men esa 2-qavatda.
- ✓ **Relative/Relation** - qarindosh
Sometimes we have a big party and invite all our relatives. – Biz ba'zida katta bazm uyushtiramiz va barcha qarindoshlarimizni taklif qilamiz.
- ✓ **Teenager** - o'smir, 13-19 yoshlardagi odam
I'm 13 today–I'm a teenager now! – Men bugun 13 yoshga to'ldim–endi men o'smir yigitman/qizman!

Verbs and phrasal verbs

- ✓ **Become** - (kelajakda) bo'lmoq
My aunt is studying to become a doctor. – Xolam shifokor bo'lish uchun o'qiyaptilar.
- ✓ **Chat** - suhbatlashmoq, gaplashmoq, gurunglashmoq
I like chatting to people on the computer. – Men kompyuterda odamlar bilan gaplashishni yoqtiraman.
- ✓ **Fall out with someone** - janjallashib-tortishib qolmoq, xafalashib qolmoq
I don't care if my clothes are unfashionable. I'm not interested in fashion. – Kiyimlar urfdan chiqqanligining menga farqi yo'q. Men modaga qiziqmayman.
- ✓ **Long** - uzun
It was the world's longest bridge. – U dunyodadagi eng uzun ko'prik edi.
- ✓ **Length** - uzunlik
We need to know the length of the table before we buy it. It may be too big for the kitchen. – Biz stol sotib olishimizdan avval, uning uzunligini bilishimiz kerak. U oshxonamiz uchun haddan tashqari katta bo'lishi mumkin.
- ✓ **Real** - haqiqiy, chin
She never had any real friends at school. – Uning maktabda hech qachon chin do'stlari bo'lmagan.
- ✓ **Really** - juda
You're a great cook. That food was really good! – Siz zo'r oshpaz ekansiz. Bu ovqat juda yaxshi ekan!
- ✓ **Style** - moda, fason, stil

Short skirts are back in style. – Kalta yubkalar yana fasonda (= urfga qaytdi).

- ✓ **Stylish** - didli, zamonaviy

You're looking very stylish today. Are those new clothes? – Bugun juda zamonaviy ko'rinasiz. Bular yangi kiyimlarmi?

- ✓ **Trend** - urf, ommalashuv

Linen is on trend again this summer. – Gazlama bu yozda yana urfda.

- ✓ **Trendy** - urf bo'lgan, ommalashgan, mashhur

We went to a trendy café. It was a very fashionable place. – Biz ommalashgan (= hozirgi paytda ko'pchilik borayotgan) kafega bordik. U yer juda zamonaviy joy ekan.

- ✓ **Warm** - issiq

Tomorrow will be warm and sunny. – Ertangi kun issiq va quyoshli bo'ladi.

- ✓ **Warmth** - iliqlik

It was winter and I didn't want to get up and leave the warmth of my comfortable bed. – Qish fasli edi va men turishni va mening qulaygina yotog'imning ilqligini tark etishni xohlamadim.

- ✓ **Wide** - keng

How wide is the river? – Daryo qanchalik keng?

- ✓ **Width** - kenglik, en

Can you tell me the length and the width of this carpet? – Menga mana bu gilamning uzunligi hamda enini aytib yubora olasizmi?

UNIT 36. JOBS AND PROFESSIONS

Nouns

- ✓ **Boss** - boshliq, xo'jayin

My mum gets on very well with her boss at work. – Oyim ishdagi boshlig'i bilan yaxshi munosabatda.

- ✓ **Business** - biznes; yumush, ish

I'd like to study and have my own business one day. – Men o'qishni va bir kun kelib o'z biznesimga ega bo'lishni xohlayman.

We have some unfinished business to discuss. – Bizning muhokama qilishimiz kerak bo'lgan tugallanmagan ishimiz bor.

- ✓ **Company** - kompaniya

My mum works for a travel company in the city centre. – Oyim shahar markazidagi sayohat kompaniyasida (= sayohat agentligida) ishlaydi.

- ✓ **Factory** - fabrika, zavod

He works in a car factory. – U mashina zavodida ishlaydi.

- ✓ **Dentist** - tish shifokori

I went to the dentist to check my teeth. – Men tishlarimni tekshirtirish uchun tish shifokoriga bordim.

- ✓ **Designer** - dizayner

Designers work on many things. If you're creative, you will do well. – Dizaynerlar ko'p narsalar ustida ishlaydi. Agar yaratuvchan bo'lsangiz, ishni yaxshi bajarasiz.

- ✓ **Doctor** - shifokor
Being a doctor is good—you get a lot of money and you help people. – Shifokor bo'lish yaxshi-ko'p pul olasiz va odamlarga yordam berasiz.
- ✓ **Engineer** - muhandis
I want to be an engineer. Then I will design a new car. – Men muhandis bo'lishni xohlayman. Keyin esa yangi mashina dizaynlashtiraman.
- ✓ **Hairdresser** - sartarosh: ayollarniki ham, erkaklarniki ham
A hairdresser cuts and styles people's hair. – Sartarosh odamlarning sochini kesadi va shakl beradi.
- ✓ **Journalist** - jurnalist
A journalist writes things for newspapers or websites. – Jurnalist gazeta va veb saytlar uchun narsalar yozadi.
- ✓ **Lawyer** - huquqshunos, advokat
You need to know the law very well if you want to be a lawyer. – Agar huquqshunos bo'lishni xohlasangiz, qonunni juda yaxshi bilishingiz kerak bo'ladi.
- ✓ **Nurse** - hamshira
My aunt is a nurse. She works with doctors in the hospital in town. – Mening xolam hamshira. U shahardagi shifoxonada shifokorlar bilan birga ishlaydi.
- ✓ **Police officer** - politsiya ofitseri
You need to be fit and healthy to be a police officer. It's a hard job. – Politsiya ofitseri bo'lish uchun siz baquvvat va sog'lom bo'lishingiz kerak. U mushkul ish.
- ✓ **Receptionist** - qabulxona xodimi, sekretar
My sister works as a receptionist in an office. – Singlim bir ofisda sekretar bo'lib ishlaydi.
- ✓ **(Shop) assistant** - sotuvchi
I work in a department store as a part-time shop assistant. – Men bir univermagda yarim stavkali sotuvchi bo'lib ishlayman (= bir kunda 4 soat).
- ✓ **Teacher** - o'qituvchi
A teacher usually has to work after school too. – O'qituvchi odatda maktabdan keyin ham ishlashga majbur bo'ladi (= maktab darslari tugaganidan keyin).
- ✓ **Tour guide** - gid, yo'l boshlovchi
I work as a tour guide in Saint Petersburg. – Men Sent Piterburgda (= tarixda Leningrad bo'lgan) gid bo'lib ishlayman.
- ✓ **Waiter/Waitress** - ofitsiant/ofitsiantka
My elder brother has a part-time job as a waiter in our local café. – Mening akamning mahalliy kafeda ofitsiant sifatida yarim stavkali ishi bor.
- ✓ **Manager** - ish boshqaruvchi
I'd like to speak to the manager. – Men ish boshqaruvchi bilan gaplashishni xohlayman.
- ✓ **Office** - ofis
I want to work outdoors. I think it'll be boring if I work in an office. – Men ochiq havoda ishlashni xohlayman. Menimcha, agar men ofisda ishlasam, bu zerikarli bo'ladi.
- ✓ **Staff** - ishchi xodimlar

We've got a big staff at my company-100 workers. – Bizning kompaniyada katta raqamdagi ishchi xodimlar bor-100 nafar ishchi.

✓ **Work** - ish

It's important to have work but you need free time too. – Ishli bo'lish muhim, lekin bo'sh vaqt ham bo'lishi zarur.

Verbs and phrasal verbs

✓ **Apply for** - (ishga) hujjat topshirmoq

My dad is a teacher and he's going to apply for a job at my school. – Mening dadam o'qituvchi va u mening maktabimdagi ish uchun hujjat topshirmoqchi.

✓ **Become** - kelajakda ... bo'lmoq

I think I want to become a dentist when I finish studying. – O'ylashimcha, men o'qishni tamomlaganimda, tish shifokori bo'lishni xohlayman.

✓ **Deal with** - bilan shug'ullanmoq, bilan ish yuritmoq

A police officer has to deal with difficult problems daily. – Politsiya ofitseri har kuni murakkab muammolar bilan ish yuritishiga to'g'ri keladi.

✓ **Design** - dizaynlashtirmoq, loyihalashtirmoq

I want to design computer games when I finish school. – Men maktabni tamomlaganimda, kompyuter o'yinlari dizaynlashtirishni xohlayman.

✓ **Earn** - pul ishlab topmoq

Do you know how much money your dad earns from his job? – Dadangiz ishidan qancha pul ishlab topishini bilasizmi?

✓ **Help** - yordam bermoq

I'm looking for a job where I can help animals-I may become a vet. – Men hayvonlarga yordam bera olishim mumkin bo'ladigan ish izlayapman-kelajakda hayvonlar shifokori bo'lishim mumkin.

✓ **Pay** - pul to'lamoq

My parents pay the bills every month. – Ota-onam har oyda iste'mol to'lovlarini (= suv, svet, gaz, axlat uchun) to'lashadi.

✓ **Serve** - xizmat ko'rsatmoq, (ovqat, ichimlik) tortmoq

I work as a waiter at weekends. My job is to serve food and drinks. – Men dam olish kunlarida ofitsiant bo'lib ishlayman. Mening ishim yegulik va ichimliklar tortish.

✓ **Teach** - o'qitmoq, o'rgatmoq

I think I want to teach English one day. – Menimcha men bir kun kelib ingliz tilini o'rgatishni xohlayman.

✓ **Treat** - davolamoq

The doctor treated my dad for a bad cold. – Shifokor dadamni kuchli shamollash uchun davoladi.

Adjectives and adverbs

✓ **Clever** - aqlli, zukko

You have to be clever and work hard to pass all your exams. – Hamma imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tish uchun, siz aqlli bo'lishingiz va qattiq ishlashingiz kerak.

- ✓ **Creative** - yaratuvchan, o'zgacha fikrlaydigan, yangi g'oyalarga boy
Designers need to be creative-you have to have good ideas. – Dizaynerlar yaratuvchan bo'lishi kerak-yaxshi g'oyalarga ega bo'lishingiz kerak.
- ✓ **Freelance** - mustaqil, bir necha joyga xizmat ko'rsatuvchi
If you are a freelance designer, you can work for different companies. – Agar siz mustaqil dizayner bo'lsangiz, siz turli kompaniyalarga ishlashingiz mumkin.
- ✓ **Full-time** - to'liq smenada ertalabdan kechgacha ishlovchi, to'liq stavkali
A full-time job is usually about 40 hours a week. – To'liq stavkali ish odatda haftasiga 40 soat bo'ladi.
- ✓ **Part-time** - yarim smenada ishlovchi, yarim stavkali (misol uchun maktab yoki universitet darslaridan keyin)
A part-time job may be 10 or 20 hours a week. – Yarim stavkali ish haftasiga 10 yoki 20 soat bo'lishi mumkin.
- ✓ **Responsible** - mas'uliyatli
You must be responsible if you want to work with children. – Agar bolalar bilan ishlashni istasangiz, siz mas'uliyatli bo'lishingiz kerak.
- ✓ **Useful** - foydali
A good computer is very useful. – Yaxshi kompyuter juda foydali bo'ladi.
- ✓ **Well-paid** - yaxshi haq to'lanadigan
A doctor has a well-paid job. They earn a lot of money. – Shifokor yaxshi haq to'lanadigan ishga ega bo'ladi. Ular ko'p pul topishadi.
- ✓ **Full-time** - ertalabdan kechgacha, to'liq stavkada
My mum works full-time so we help with the housework. – Oyim to'liq stavkada ishlaydilar, shuning uchun biz uy ishlari bilan yordam beramiz.
- ✓ **Part-time** - yarim stavkada
I'm a student so I work part-time to earn money. – Men talabaman, shunday ekan men pul topish uchun yarim stavkada ishlayman.

Phrases

- ✓ **Be in charge of** - ning nazoratiga javobgar, mas'ul
The manager is in charge of this office. Do you want to speak to him? – Ish boshqaruvchi bu ofisning nazoratiga javobgar. U bilan gaplashishni xohlaysizmi?
- ✓ **Find/Get/Have a job** - ish topmoq/ish olmoq/ishi bo'lmoq
When I leave school, I'm going to find a job. – Maktabni tark etganimda (= maktabni yakunlaganimda), men ish topmoqchiman.
- ✓ **Run a business/company/shop/etc** - biznesni/kompaniyani/do'konni/va hokazolarni yuritmoq, boshqarmoq
My dad works hard-he runs a business and he is always at the office! – Dadam qattiq ishlaydi-u biznes yuritadi va har doim ofisda!
- ✓ **Wear a uniform** - maxsus ish kiyimi/maktab formasi kiyimoq

Do pupils have to wear a uniform at your school? – O'quvchilar maktabingizda maktab formasi kiyishlari shartmi?

- ✓ **Work as a doctor/teacher/etc** - shifokor/o'qituvchi/va hokazo bo'lib ishlamoq
My uncle works as a teacher at a school in Leeds. – Mening tog'am Lidzdagi maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaydi.
- ✓ **Work for a company** - biror kompaniyada ishlamoq
When you work for a company, you have to follow their rules. – Biror kompaniyada ishlaganingizda, ularning qoidalariga amal qilishingiz shart.
- ✓ **Work hard** - qattiq ishlamoq, tirishib ishlamoq
If you work hard at this job, they'll give you more money. – Agar bu ishda tirishib ishlasangiz, ko'proq pul berishadi.
- ✓ **Work in a factory/office/plant/etc** - fabrika/ofis/zavod/ va hokazoda ishlamoq
Roman works in a factory near Rostov-on-Don. – Roman Rostov-on-Don yaqinidagi fabrikada ishlaydi.

Word formation

- ✓ **Assist** - yordam bermoq
Your job will be to assist the production manager. – Sizning ishingiz ishlab chiqarish boshqaruvchisiga yordam berish bo'ladi.
- ✓ **Assistant** - yordamchi
Mum works as an assistant to the manager. – Oyim ish boshqaruvchi yordamchisi bo'lib ishlaydilar.
- ✓ **Boss** - boshliq, xo'jayin
Our new boss is a father of three. – Yangi boshlig'imiz uch farzandning otasi.
- ✓ **Bossy** - xo'jayinlik qilib buyruq berishni yoqtiradigan
She's really bossy-she always tells us to do things! – U xo'jayinchilik qilishni juda yoqtiradi-u har doim bizga nima qilishni aytadi!
- ✓ **Busy** - band
The principal is a very busy woman. – Direktor juda ham band ayol.
- ✓ **Business** - biznes
I want to have my own business. – Men o'z shaxsiy biznesimga ega bo'lishni xohlayman.
- ✓ **Businessman** - biznesmen
Sam is a businessman. He runs his own company. – Sem biznesmen. U o'z shaxsiy kompaniyasini yuritadi.
- ✓ **Businesswoman** - tadbirkor ayol
She's a successful businesswoman. – U muvaffaqiyatli tadbirkor.
- ✓ **Design** - dizaynlashtirmoq
He designed and built his own house. – U o'z uyini o'zi dizaynlashtirgan va qurgan.
- ✓ **Design** - dizayn
I like the design of this phone. It's attractive. – Bu telefonning dizayni menga yoqdi. U chiroyli ekan.

- ✓ **Designer** - dizayner
I love fashion and I want to become a fashion designer. – Men modani yaxshi ko'raman va men moda dizayneri bo'lishni xohlayman.
- ✓ **Law** - qonun
In Sweden it is against the law to hit a child. – Shvetsiyada bolani urish qonunga zid.
- ✓ **Lawyer** - huquqshunos, advokat
My brother is studying law because he wants to become a lawyer. – Mening ukam qonunni o'rganyapti chunki u huquqshunos bo'lishni xohlaydi.
- ✓ **Manage** - boshqarmoq
I think that Forestry Tasmania manages the forest. – Menimcha, bu o'rmonni Tasmania O'rmon Xo'jaligi boshqaradi.
- ✓ **Manager** - ish boshqaruvchi
The manager of the company gave the workers more money. – Kompaniya ish boshqaruvchisi ishchilarga ko'proq pul berdi.
- ✓ **Reception** - qabulxona
I've left the keys at reception. – Men kalitlarni qabulxonada qoldirdim.
- ✓ **Receptionist** - qabulxona xodimi, sekretar
When you get to my office, ask the receptionist to call me. – Mening ofisimga yetib kelganingizda, sekretardan menga qo'ng'iroq qilishini so'rang.
- ✓ **Work** - ishlamoq
A lot of mothers choose to work part-time. – Ko'plab onalar yarim stavkada ishlashni tanlashadi.
- ✓ **Work** - ish
I like to go for a run after work. – Men ishdan keyin yugurishga chiqishni yoqtiraman.
- ✓ **Worker** - ishchi
My dad is an office manager. There are 15 workers working for him. – Dadam ofis menejeri. 15 nafar ishchi uning qo'l ostida ishlaydi.

UNIT 39. FAMOUS PEOPLE AND PLACES

Nouns

- ✓ **Actor/Actress** - aktyor/aktrisa
The actors and actresses in that film were very good, weren't they? – Bu filmdagi aktyor va aktrisalar juda yaxshi edi, shunday emasmi?
- ✓ **Artist** - rassom
Kandinsky was a brilliant artist who painted amazing pictures. – Kardinski ajoyib rasmlar chizgan ajoyib rassom bo'lgan.
- ✓ **Explorer** - tadqiqotchi, yangi joylarni kashf qiluvchi
I want to be an explorer and discover new places. – Men tadqiqotchi bo'lishni hamda yangi yerlarni kashf etishni xohlayman.
- ✓ **Inventor** - ixtirochi
Alexander Graham Bell was the inventor of the telephone, wasn't he? – Aleksandr Greym Bel telefon ixtirochisi bo'lgan, shunday emasmi?

- ✓ **King** - qirol
Who was the King of England in 1066? – 1066-yilda Angliya qirol kim bo'lgan?
- ✓ **Politician** - siyosatchi, davlat arbobi
Politicians usually help rule a country. – Davlat arboblari odatda mamlakatni boshqarishga yordam beradi.
- ✓ **Queen** - qirolicha
Queen Victoria ruled Britain from 1837 to 1901. – Qirolicha Viktoriya 1837-yildan 1901-yilgacha Britaniyani boshqargan.
- ✓ **Singer** - qo'shiqchi
She wants to be a singer in a rap band. – U rep guruhida qo'shiqchi bo'lishni xohlaydi.
- ✓ **Sportsman/Sportswoman** - sportchi (erkak/ayol)
Can you earn a lot of money as a sportsman? – Sportchi bo'lib ko'p pul topa olasizmi?
- ✓ **Writer** - yozuvchi
I want to be a writer. I want to write stories like Turgenev. – Men yozuvchi bo'lishni xohlayman. Turgenevga o'xshab hikoyalar yozishni istayman.
- ✓ **Building** - bino
There are lots of famous buildings in London. – Londonda ko'plab mashhur binolar bor.
- ✓ **Castle** - qal'a
There are lots of old castles in Europe. – Yevropada ko'plab qadimiy qal'alar bor.
- ✓ **Cathedral** - bosh cherkov, ibodatxona
A cathedral is a very big church. – Ibodatxona bir katta cherkovdir.
- ✓ **Museum** - muzey
I love trips to the museum because History is my favourite subject. – Men muzeyga sayohatlarni yoqtiraman chunki Tarix mening sevimli fanim.
- ✓ **Palace** - saroy
We heard a story about a king who lived in a very big palace. – Biz bir juda katta saroyda yashagan qirol to'g'risida hikoya eshitdik.
- ✓ **Statue** - haykal, yodgorlik
One day, if you're famous, they'll build a statue of you! – Bir kun kelib, agar mashhur bo'lib ketsangiz, sizning haykalingizni yasashadi!
- ✓ **Tower** - minora
Some old castles have towers that you can climb up. – Ba'zi qadimiy qal'alarning tirmashib chiqish mumkin bo'lgan minoralari bor.
- ✓ **Prize** - sovrin
Did you win a prize for coming first in the race? – Poygada birinchi kelganingiz uchun sovrin yutdingizmi?
- ✓ **Star** - yulduz
I want to become a singer but not a star. I don't want to be famous. – Men yulduz emas, qo'shiqchi bo'lishni xohlayman. Mashhur bo'lishni istamayman.
- ✓ **Tourist attraction** - diqqatga sazovor joy, sayyohlar ko'p tashrif buyuradigan joy
Red Square is the biggest tourist attraction in Moscow. – Qizil Maydon Moskvadagi sayyohlar eng ko'p tashrif buyuradigan joy.

- ✓ **World record** - jahon rekordi, dunyo rekordi
Which athlete holds the world record for the 100-metre race? – Qaysi sportchi 100 metrga yugurish bo'yicha jahon rekordini o'rnatgan?

Verbs and phrasal verbs

- ✓ **Build** - qurmoq, barpo etmoq
I wonder if it's hard to build a house. – Qiziq, uy qurish qiyinmikin?
- ✓ **Create** - yaratmoq
I'd like to create a new kind of mobile phone. – Men uyali telefonning yangi turini yaratishni xohlayman.
- ✓ **Discover** - kashf qilmoq, birinchi marotaba topmoq
Do you know who discovered America? – Amerikani kim kashf qilganini bilasizmi?
- ✓ **Go in** - ichkariga kirmoq
I didn't want to go in the classroom and do my exams! – Men sinfga kirib, imtihonlarimni topshirishni xohlamadim!
- ✓ **Perform** - sahna asari ko'rsatmoq, tomosha qo'ymoq, spektakl qo'ymoq; (rol) ijro etmoq
Do you think it is difficult to perform in front of people in a theatre? – Nima deb o'ylaysiz, teatrdagi odamlar qarshisida rol ijro etish qiyinmi?
- ✓ **Play** - o'ynamoq
What part are you going to play in the performance? – Spektaklda qaysi rolni o'ynamoqchisiz?
- ✓ **Rule** - (mamlakatni) boshqarmoq
The queen ruled the country for many years. – Qirolicha mamlakatni ko'p yillar mobaynida boshqardi.
- ✓ **Visit** - tashrif buyurmoq
Which country are we going to visit next year? – Kelasi yilda qaysi davlatga tashrif buyuramiz?
- ✓ **Walk around** - aylanmoq (piyoda)
It's nice to walk around the city at night. – Tunda shahar aylanish ajoyib.
- ✓ **Wonder at** - biror narsadan hayratda qolmoq
I always wonder at the beauty of Saint Basil's Cathedral. – Men har doim Sent Bazl Cherkovining chiroyidan hayratda qolaman.

Adjectives and adverbs

- ✓ **Brilliant** - ajoyib, zo'r
Come and see this new computer game. It's brilliant! – Kelib mana bu kompyuter o'yini bir ko'ring. Bu juda ajoyib!
- ✓ **Fantastic** - ajoyib, zo'r, hayratlanarli
The trip to the museum was fantastic. I really enjoyed it. – Muzeyga sayohat ajoyib bo'ldi. Men mazza qildim.
- ✓ **Fast** - tezkor
Are you a fast runner? – Siz tezkor yuguruvchimisiz?
- ✓ **Great** - zo'r, ajoyib

My grandfather tells some great stories about the past. – Mening bobom o'tmish haqida ajoyib hikoyalar aytib beradilar.

✓ **Rich** - boy, puldor

I want to become rich and buy lots of cars and houses! – Men boy bo'lishni va juda ko'p mashinalar va uylar sotib olishni xohlayman!

✓ **Successful** - muvaffaqiyatli

A successful student will get a certificate. – Muvaffaqiyatli o'quvchi sertifikat oladi.

✓ **Talented** - iqtidorli, qobiliyatli

There are a lot of very talented actors and actresses in the theatre. – Teatrda ko'plab juda iqtidorli aktyor va aktrisalar bor.

✓ **Well-known** - mashhur, taniqli

Buckingham Palace is a well-known building in London. – Bakinem Saroyi Londondagi taniqli bino.

✓ **Anywhere** - biror yerga/da

Are you going to go anywhere nice after the end of term? – Semester yakunidan so'ng biror yaxshi joyga bormoqchimisiz?

✓ **Fast** - tez

My dad's car is OK but it doesn't go very fast. – Dadamning mashinasi yaxshi, lekin u juda tez yurmaydi.

Phrases

✓ **All around the world** - butun dunyodan, butun dunyo bo'ylab

I've travelled all around the world and this is my favourite place. – Men butun dunyo bo'ylab sayohat qilganman va bu mening eng sevimli yerim.

✓ **Be a big fan of** - ning ashaddiy muhlisi bo'lmoq

I'm a big fan of Selena Gomez. I think she's a great singer. – Men Selena Gomezning ashaddiy muhlisiman. Menimcha, u ajoyib qo'shiqchi.

✓ **Be born in (a place/year)** - (ma'lum bir joyda/yilda) tug'ilgan bo'lmoq

I was born in Tomsk in 2004. – Men 2004-yilda Tomsk shahrida tug'ilganman.

✓ **Be famous for something** - biror narsasi uchun mashhur bo'lmoq

Daniel Craig is famous for acting in James Bond films. – Danyel Kreyg Jeyms Bond filmlarida rol o'ynagani uchun mashhur.

✓ **Be located in** - da joylashgan bo'lmoq

Novosibirsk is located in Siberia. – Novosibirsk Siberiyada joylashgan.

✓ **Be the first person to do something** - biror ishni qilgan eng birinchi inson bo'lmoq

Who was the first person to travel into space? – Koinotga sayohat qilgan eng birinchi inson kim bo'lgan?

✓ **Hold the record for** - biror narsa bo'yicha rekord natijani o'rnatgan bo'lmoq

Who holds the record for the most goals in a football match? – Futbol o'yinida eng ko'p go'l urganlik bo'yicha rekordni kim o'rnatgan?

✓ **Hope to meet/see/visit** - uchratib qolishni/ko'rishib qolishni/tashrif buyurishni umid qilmoq

I hope to visit my cousins in Cyprus next year. – Men kelasi yili Kiprdagi amakivachchalarimnikiga tashrif buyurishga umid qilaman.

Word formation

- ✓ **Collect** - to'plamoq, yig'moq
She collects dolls. – U qo'g'irchoqlar yig'adi.
- ✓ **Collector** - kolleksioner: biror narsa to'plovchi odam
Dad loves old cars. He's a collector. – Dadamga eski mashinalar yoqadi. U kolleksioner.
- ✓ **Collection** - kolleksiya, to'plam
I have a big collection of songs—over 5,000. – Menda katta qo'shiqlar to'plami bor—5,000 dan ziyod.
- ✓ **Describe** - tasvirlamoq
Can you describe him to me? – Uni menga tasvirlab bera olasizmi?
- ✓ **Description** - tasvir, tavsif
Can you give me a description of the man you saw? What was he wearing? – Siz ko'rgan erkakning tasvirini menga bera olasizmi? U nima kiyib olgandi?
- ✓ **Discover** - kashf qilmoq, birinchi marotaba topmoq
Galileo discovered the moons of Jupiter. – Galiley Yupiter sayyorasining yo'ldoshlarini kashf etgan.
- ✓ **Discovery** - kashfiyot, topilma, topib olinish
The discovery of the old castle was very exciting. – Qadimiy qal'aning topib olingani juda ajoyib bo'ldi.
- ✓ **Discoverer** - kashfiyotchi
Who was the discoverer of America? – Amerikaning kashfiyotchisi kim bo'lgan?
- ✓ **Explore** - tadqiq etmoq: biror joy haqida ko'proq o'rganish uchun u yerni aylanmoq
The best way to explore the countryside is on foot. – Shahar tashqarisini tadqiq etishning eng yaxshi usuli piyoda aylanish.
- ✓ **Explorer** - tadqiqotchi
We learned about explorers in our History lesson. – Biz tarix darsimizda tadqiqotchilar haqida o'rgandik.
- ✓ **Exploration** - tadqiqot; aylanish, ko'rib chiqish, o'rganish
Exploration of a new city is always exciting. – Yangi shaharni o'rganish har doim ham ajoyib.
- ✓ **Fame** - mashhurlik, shon-shuhrat
She found fame on the stage. – U sahnada shon-shuhrat topdi (= mashhurlikka erishdi).
- ✓ **Famous** - mashhur, taniqli
Alexander Pushkin was a famous Russian writer. – Aleksandr Pushkin taniqli Rus yozuvchisi bo'lgan.
- ✓ **Invent** - ixtiro qilmoq
Thomas Edison invented the light bulb. – Tomas Edisn lampochkani ixtiro qilgan.
- ✓ **Inventor** - ixtirochi

My brother wants to be an inventor—he's always making things! – Mening ukam ixtirochi bo'lishni xohlaydi—u har doim narsalar yasashdan to'xtamaydi!

- ✓ **Invention** - ixtiro
The computer is a great invention. – Kompyuter ajoyib ixtiro.
- ✓ **Perform** - namoyish ko'rsatmoq, spektakl qo'ymoq
The play was first performed in 2007. – Ushbu spektakl ilk marotaba 2007-yilda qo'yilgan.
- ✓ **Performer** - ijrochi, ishtirokchi
The performers made us laugh. – Ijrochilar bizni kuldirishdi.
- ✓ **Performance** - ijro, spektakl, sahna ko'rinishi, tomosha
We went to the theatre to watch a performance. – Biz spektakl ko'rish uchun teatrga bordik.
- ✓ **Success** - muvaffaqiyat
Confidence is the key to success. – Ishonch muvaffaqiyat kaliti.
- ✓ **Successful** - muvaffaqiyatli
Nathan applied for the job and he was successful. He starts next week. – Neysn ishga hujjat topshirdi va muvaffaqiyatli bo'ldi. U kelasi hafta boshlaydi.
- ✓ **Talent** - iqtidor, talant, qobilyat
You have a natural talent for storytelling. – Sizning hikoya aytishga tabiiy iqtidoringiz bor.
- ✓ **Talented** - iqtidorli, talantli, qobiliyatli
Morgan is a talented violin player. He may become famous one day. – Mo'gen iqtidorli skripkachi. U bir kun kelib mashhur bo'lishi mumkin.
- ✓ **Tour** - aylanmoq, sayohat qilmoq
He's toured across Europe, the UK and North America. – U Yevropa, Birlashgan Qirollik hamda Shimoliy Amerika bo'ylab sayohat qilgan.
- ✓ **Tour** - sayohat, biror joyni aylanib chiqish
Did you go on a bus tour in Ottawa? – Ottavani avtobusda aylanib chiqdingizmi?
- ✓ **Tourist** - sayyoh, turist
Millions of tourists visit Paris every year to see the sights. – Millionlab sayyohlar har yili diqqatga sazovor joylarni ko'rish uchun Parijga tashrif buyuradi.

UNIT 42. COMMUNICATION AND TECHNOLOGY

Nouns

- ✓ **App** - mobil ilova, dastur
You can get apps for your phone that help you learn English. – Telefonigizga ingliz tilini o'rganishingizga yordam beruvchi mobil ilovalarni olishingiz mumkin.
- ✓ **Keyboard** - klaviatura
Most laptops have a compact keyboard. – Ko'pchilik noutbuklarning ixchamgina klaviaturasi bo'ladi.
- ✓ **Mouse** - kompyuter sichqonchasi
I use a mouse when I work on the computer. – Men kompyuterda ishlaganimda, sichqonchadan foydalanaman.
- ✓ **Printer** - printer

I haven't got a printer, so I have to read things on the screen. – Mening printerim yo'q, shuning uchun men narsalarni kompyuter ekranida o'qishga majburman.

- ✓ **Screen** - ekran
Some people buy computers with really big screens. – Ba'zi odamlar juda katta ekranli kompyuterlar sotib oladi.
- ✓ **Software** - dasturiy ta'minot: kompyuter programmalari
A piece of software is usually a program that you download. – Dasturiy ta'minot odatda siz yuklab oladigan bir programma.
- ✓ **Touchpad** - tachped: sichqoncha kursorini boshqaruvchi kompyuterga birlashtirilgan sezuvchan panel
There's a touchpad on this laptop but you can use a mouse if you like. – Bu noutbukda tachped bor, lekin agar istasangiz, sichqonchadan foydalanishingiz mumkin.
- ✓ **Email address** - elektron pochta manzili
Give me your email address so I can send you the homework. – Sizga uyga vazifani jo'nata olishim uchun, menga elektron pochta manzilingizni bering.
- ✓ **Laptop** - noutbuk
Would you prefer to have a laptop or a tablet? – Noutbukka ega bo'lishni afzal ko'rgan bo'larmidingiz yoki planshetgami?
- ✓ **(Smart)phone** - smartfon
A smartphone is more than just a phone. It's like a little computer in your pocket. – Smartfon shunchaki telefon emas. U go'yoki cho'ntagingizdagi bir kichik kompyuter.
- ✓ **Tablet** - planshet
I like to read e-books on my tablet. – Men planshetimda elektron kitoblar o'qishni yoqtiraman.
- ✓ **Social media/network** - ijtimoiy tarmoq
Most young people chat to each other on social media. – Ko'pchilik yoshlar bir-biri bilan ijtimoiy tarmoqlarda suhbatlashadi.
- ✓ **Text (message)** - yozuvli xabar, SMS
Sending a text message is often cheaper than making a phone call. – Odatda SMS jo'natish qo'ng'iroq qilishdan arzonroq.
- ✓ **The internet** - internet
I love the internet and I go online every evening. – Menga internet yoqadi va men har oqshomda internetga kiraman.
- ✓ **Website** - vebsayt
Some of the websites I see online are really interesting. – Men internetda ko'radigan ba'zi vebsaytlar juda qiziqarli.

Verbs and phrasal verbs

- ✓ **Browse** - internetda o'tirmoq, bir saytdan ikkinchisiga o'tib yurmoq
I'm not doing anything special. I'm just browsing on the internet. – Men hech qanday maxsus ish qilmayapman. Men shunchaki internetda o'tiribman.
- ✓ **Call** - qo'ng'iroq qilmoq

I'll call you after school. We'll speak then. – Men maktabdan so'ng sizga qo'ng'iroq qilaman. O'shanda gaplashamiz.

- ✓ **Click** - bosmoq
Click on this link if you want to see my website. – Agar mening veb saytini ko'rishni istasangiz, mana bu link ustiga bosing.
- ✓ **Download/Upload** - internetdan yuklab olmoq/internetga yuklamoq, joylamoq
I upload photos to social media so my friends can see them. – Do'stlarim ko'ra olishi uchun, rasmlarni ijtimoiy tarmoqqa joylayman.
You can download the app for free. – Ilovani bepul yuklab olishingiz mumkin.
- ✓ **Install** - o'rnatmoq (ilovani kompyuter yoki telefonga)
You need to install a program on your computer to download music. – Musiqa yuklab olish uchun, kompyuteringizga ilova o'rnatishingiz zarur.
- ✓ **Log in(to)/Log on(to)/Log out** - tizim yoki veb saytga kirmoq/kirmoq/dan chiqmoq (kompyuterda ishlaganda)
When you log into this website, they ask for your telephone number. – Bu veb saytga kirganingizda, sizning telefon raqamingizni so'rashadi.
You need a password to log on. – Tizimga kirish uchun sizga parol kerak bo'ladi.
Make sure you log out of your account on public computers. – Jamoat kompyuterlarida shaxsiy akkauntingizdan chiqib ketishga ishonch hosil qiling.
- ✓ **Post** - internetga joylamoq, qo'ymoq
Don't post things that are not nice when you're using social media. – Ijtimoiy tarmoqdan foydalanayotganingizda, yaxshi bo'lmagan narsalarni internetga joylamang.
- ✓ **Send** - jo'natmoq, yubormoq
Shall I send you an email when I get to Rome? – Rimga yetib borganimda sizga email yuboraymi?
- ✓ **Subscribe to** - ga a'zo bo'lmoq, obuna bo'lmoq
Which blog do you subscribe to? – Qaysi blogga obuna bo'lgansiz?
- ✓ **Text** - xabar yozmoq
Don't forget to text me when you arrive in Madrid. – Madridga yetib borganingizda menga xabar yozishni unutmang.

Adjectives and adverbs

- ✓ **Chatty** - ko'pgap, vaysaqi
I'm not a very chatty person. I don't like talking. – Men juda ham ko'pgap odam emasman. Gapirishni yoqtirmayman.
- ✓ **Digital** - raqamli
I want a digital camera because they take great photos. – Menga raqamli kamera (= fotoapparat) kerak chunki ular rasmlarni zo'r oladi.
- ✓ **Downloadable** - internetdan yuklab olsa bo'ladigan
This website has got downloadable exercises that you can do at home. – Bu veb saytda uyda bajarishingiz mumkin bo'lgan yuklab olsa bo'ladigan mashqlar bor.
- ✓ **Online** - onlayn, internetda

Online shopping is popular because you can order what you want from your home computer. – Internetda xarid qilish mashhur chunki siz uydagi kompyuteringizdan xohlagan narsangizga buyurtma berishingiz mumkin.

- ✓ **Shy** - uyatchan, tortinchoq
I'm very shy, so I don't like to see pictures of me on the screen. – Men juda uyatchanman, shuning uchun ekranda rasmlarimni ko'rishni yoqtirmayman.
- ✓ **Smart** - aqlli, kompyuterlashtirilgan
I want to buy a smart TV–they're as good as a computer. – Men aqlli televizor sotib olishni xohlayman–ular xuddi kompyuterdek yaxshi.
- ✓ **At once** - bir pastda, o'sha zahotiyog
We met at a party and became good friends at once. – Biz bazmda uchrashganmiz va o'sha zahotiyog yaxshi do'stlarga aylanganmiz.
- ✓ **Immediately** - darrov, bir zumda, birdaniga, bir pastda
I looked for the answer online and I found it immediately. – Men internetdan javobni qidirdim va uni bir zumda topdim.

Phrases

- ✓ **Answer the/your phone** - qo'ng'iroqqa javob bermoq
I was calling you–why didn't you answer your phone? – Men sizga qo'ng'iroq qilayotgandim–nima uchun qo'ng'iroqqa javob bermadingiz?
- ✓ **Click on a link** - URL linkning ustiga bosmoq
Be careful on the internet because when you click on a link, it may not be what it says it is. – Internetda ehtiyotkor bo'ling chunki biror link ustiga bosganingizda, u aytilgan narsa bo'lmasligi mumkin.
- ✓ **Comment on a post/video/etc** - postga/videoga/va hokazoga nisbatan fikr bildirmoq
It's OK to comment on a post online but you must always be polite. – Internetda biror postga nisbatan fikr bildirsangiz bo'ladi, lekin doimo xushmuomala bo'lishingiz kerak.
- ✓ **Follow someone on Instagram/VK/etc** - Instagramda/VKontaktida/boshqa ijtimoiy tarmoqlarda biror kimni kuzatmoq
All my friends follow me on Instagram. – Barcha do'stlarim meni Instagramda kuzatib boradi.
- ✓ **Go online** - internetga kirmoq, onlayn bo'lmoq
I've got a computer in my room but I don't go online every day. – Xonamda kompyuter bor, lekin men har kuni ham internetga kirmayman.
- ✓ **Have a conversation/chat with someone** - biror kim bilan suhbatlashmoq, gaplashmoq
I had a chat with Jasmine yesterday. She told me to say hello to you. – Kecha men Jasmin bilan suhbatlashdim. U sizga salom aytib qo'yishimni aytdi.
- ✓ **Surf the internet** - internetdan qidirmoq, internetda o'tirmoq
I was surfing the internet to find ideas for my homework. – Men uyga vazifam uchun g'oyalar topish maqsadida internetda o'tirgandim.
- ✓ **Take/Post a selfie** - selfi olmoq/internetga joylamoq

When I was in Rome, I took a selfie and posted it on Instagram for my friends to see. – Rimda bo'lgan paytimda, men selfi oldim va do'stlarim ko'rishi uchun uni Instagramga joyladim.

Word formation

- ✓ **Attach** - biriktirmoq, qo'shib jo'natmoq
I am attaching the image as a PDF file. – Rasmni PDF fayl shaklida qo'shib jo'natyapman.
- ✓ **Attachment** - biriktirib jo'natilgan narsa
I sent the picture as an email attachment. – Rasmni emailga biriktirib jo'natdim.
- ✓ **Blog** - blog
You can read about my trip in my blog. – Sayohatim to'g'risida blogimda o'qishingiz mumkin.
- ✓ **Blog** - blog yuritmoq
Finley blogs about his life in Ireland. – Finley Irlandiyadagi hayoti to'g'risida blog yuritadi.
- ✓ **Blogger** - blogger
I'm not a blogger but I read what other people write in their blogs. – Men blogger emasman, lekin boshqa odamlar o'z bloglarida yozgan narsalarni o'qiyman.
- ✓ **Blogging** - blog yuritish, bloggerlik qilish
Blogging is a great way to write what you think. – Blog yuritish - bu o'z fikringizni yozishning ajoyib usuli.
- ✓ **Chat** - suhbat
We had a nice chat over a cup of tea. – Biz bir finjon choy ustida ajoyib suhbat qurdik.
- ✓ **Chat** - suhbatlashmoq, gaplashmoq
The girls are chatting online now. – Qizlar hozir internetda suhbatlashishyapti.
- ✓ **Chatty** - ko'pgap, vaysaqi
Luke was very chatty—he didn't stop talking. – Lyuk juda ham ko'pgap bo'ldi-u gapirishdan to'xtamadi.
- ✓ **Communicate** - aloqa qilmoq
We usually communicate by letter. – Biz odatda xat orqali aloqa qilamiz.
- ✓ **Communication** - aloqa
Online communication is fast—you can send a message very quickly. – Onlayn aloqa tezkor-siz juda tezlik bilan xabar jo'natishingiz mumkin.
- ✓ **Download** - internetdan yuklab olmoq
You can download unlimited e-books for free. – Cheksiz elektron kitoblarni bepul yuklab olishingiz mumkin.
- ✓ **Downloadable** - internetdan yuklab olsa bo'ladigan
The downloadable lessons on this website are free. – Bu veb saytdagi yuklab olsa bo'ladigan darslar bepul.
- ✓ **Follow** - kuzatmoq
I don't follow many celebrities on Twitter any more. – Men bundan buyon Twitterda ko'p mashhurlarni kuzatib bormayman.
- ✓ **Follower** - kuzatuvchi

I have 500 followers who read my posts on Instagram. – Mening Instagramda postlarimni o'qib boradigan 500 nafar kuzatuvchim bor.

- ✓ **Listen** - tinglamoq

I was listening to the radio. – Men radio tinglayotgan edim.

- ✓ **Listener** - tinglovchi

*Good afternoon, listeners! Welcome to the programme! – Assalom aleykum, tinglovchilar!
Ko'rsatuvga xush kelibsiz!*

- ✓ **Speak** - gapirmoq

You must speak loudly and clearly on the stage. – Sahnada baland ovozda va tiniq gapirishingiz kerak.

- ✓ **Speech** - nutq, ma'ruza

Are you worried about giving your speech tomorrow? – Ertaga beradigan nutqingiz haqida havotirdamisiz?

- ✓ **Speaker** - spiker: gapiruvchi odam

The manager was the first speaker at the meeting. – Ish boshqaruvchi uchrashuvdagi birinchi spiker bo'ldi.

- ✓ **Subscribe** - a'zo bo'lmoq, obuna bo'lmoq

To hear the full interview, subscribe to the free National Geographic News podcast. – To'liq intervyuni eshitish uchun, bepul National Geographic News podkastiga obuna bo'ling.

- ✓ **Subscription** - obuna

Do you have to have a subscription to that music website to listen to music? – Musiqa tinglash uchun, o'sha veb saytga obuna bo'lgan bo'lishingiz shartmi?

- ✓ **Subscriber** - obunachi

There are over 5,000 subscribers to this website. – Bu veb saytning 5,000 dan ziyod obunachisi bor.

Sizning Fikringiz Biz Uchun Muhim!

Agarda siz ushbu kitobdan foydalanish jarayonida, qandaydir kamchilik yoxud xatoga duch kelsangiz, quyidagi manzil orqali muallif bilan bog'lanishingizni va xato haqida muallifga xabar berishingizni so'raymiz. Bundan tashqari, kitob haqidagi boshqa har qanday (tanqidiy va ijobiy) fikrlaringizni ham ushbu manzilga yuborishingiz mumkin. Sizning fikrlaringizni eshitishdan mamnun bo'lamiz va aynan sizning fikrlaringizga asoslangan holda kitob takomillashtirib boriladi.

Telegram: @Zoir_Akramov

E-mail: akramov2002zoir@gmail.com

Muallifning Boshqa Rejalari

Til o'rganuvchilari uchun mo'ljallangan boshqa Destination seriyalari ham mavjud, xususan "Destination A1", "Destination A2", "Destination B2" hamda "Destination C1&C2". Til o'rganuvchilariga yordam berish hamda boshlagan ishimni yakunlab qo'yish maqsadida, ushbu kitoblarning ham Vocabulary qismlaridagi so'zlarni ishonchli tarzda tarjima qilishni oldimga maqsad qilganman. Bundan tashqari, ko'rish qobiliyati jihatdan imkoniyati cheklangan do'stlarimiz uchun ushbu so'zlarning to'g'ri talaffuzlarini ham audio kitob tarzida ishlab chiqish; Destination kitoblarining har bir grammatik mavzusiga video darslar tayyorlash kabi ulkan maqsadlarim ham bor. Albatta, bularning bari vaqt talab etadi, ammo bir kun kelib siz-u men kabi ingliz tili o'rganuvchilariga sezilarli darajada foydasi tegadigan material tayyor bo'ladi.

Agar bu borada, muallifga o'z yashirin yordamingizni berishni hamda jarayonni tezlashtirishni istasangiz, quyidagi plastik kartasiga ko'nglingizdan chiqarib istalgan summadagi yordam pulini o'tkazishingiz mumkin. Sizning behad ulkan ko'magingizdan boshimiz ko'kka yetadi va siz uchun xizmat qilishdan to'xtamaymiz!

Plastik kartasi raqami: 9860170105664412 (Akramova Ozoda nomida)

Muallifning Onlayn Ingliz Tili Kurslari

Muallif onlayn tarzda ingliz tilini o'rgatishga o'zini bag'ishlagan va ingliz tilini o'rganishning har qanday darajasi uchun o'z kursi mavjud: Beginner, Elementary, Pre-intermediate, Intermediate, Upper-intermediate hamda IELTS kurslari. Shunday ekan, siz qulaygina uyingizni tark etmay, o'quv markaziga borish va kelish uchun hech qanday qimmatbaho vaqtingizni sarflagamagan holda, ingliz tilini o'zingizga mos darajada, IELTS natijasi 8.0 bo'lgan o'qituvchidan o'rganishingiz mumkin (kelajakda natija ko'tariladi). Har oyning boshida yangi kurslar ochiladi va birinchi 3 dars sinov tariqasida o'tkaziladi, ya'ni birinchi hafta haq to'lamay dastlabki 3 darsni ko'rishingiz mumkin. Ushbu muddat davomida, siz kurs qay tartibda tuzilgani, nimalarga e'tibor berilishi, kurs darajasi sizga to'g'ri kelish-kelmasligini tekshirish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Har bir kursda grammar, vocabulary, pronunciation, reading, listening, writing va speakingga birdek e'tibor qaratiladi.

Darslar sifatini baholash uchun hamda kursda ishtirok etish uchun, quyidagi telegram manzil orqali murojaat qilishingiz mumkin: @Zoir_Akramov